

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQALARI SANOATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Burxanov Aktam Usmanovich**

O‘zbekiston Milliy universiteti  
“Moliya va kredit” kafedrası professori, i.f.d., prof.

### Annotatsiya

Maqolada mintaqa iqtisodiyoti, xususan, sanoatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlari tadqiq qilingan. O‘zbekiston mintaqalarida yirik sanoat korxonolari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari hajmining o‘zgarishi, Yalpi hududiy mahsulot hajmining dinamik o‘zgarishi va mamlakatimiz hududlari bo‘yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi dinamikasi tahlil qilingan. Tahlillar natijasida mamlakatimiz mintaqalarida sanoatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar tizimlashtirilgan va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** mintaqa, sanoat, barqaror rivojlanish, Yalpi hududiy mahsulot, sanoat zona, tabiiy resurslar.

### Аннотация

В статье исследованы научно-теоретические аспекты развития региональной экономики, в частности промышленного сектора. Проанализированы изменения объёмов производства промышленной продукции крупными промышленными предприятиями в регионах Узбекистана, динамика валового регионального продукта, а также динамика объёмов промышленной продукции на душу населения в разрезе регионов страны. По результатам проведённого анализа систематизированы основные проблемы, препятствующие развитию промышленности в регионах, и разработаны научные предложения и практические рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** регион, промышленность, устойчивое развитие, валовой региональный продукт, промышленная зона, природные ресурсы.

### Abstract

The article examines the scientific and theoretical aspects of regional economic development, with a particular focus on the industrial sector. It analyzes changes in the volume of industrial output produced by large industrial enterprises across the regions of Uzbekistan, the dynamic trends of the gross regional product, and the evolution of industrial output per capita by region. Based on the results of the analysis, the key constraints hindering industrial development in the regions have been systematically identified, and scientifically grounded proposals as well as practical recommendations for their mitigation have been developed.

**Keywords:** region, industry, sustainable development, gross regional product, industrial zone, natural resources.

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bugun mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o‘zining

salmogli o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Respublikamiz Prezidentining olib borayotgan odilona siyosatini bugun dunyo davlatlari e‘tirof etmoqda. Shuningdek, mamlakatni rivojlantirish borasida uzoq yillik strategiyalarni qabul qilinishi hamda davlat dasturlarining ishlab chiqilishi yurtimizni har tomonlama barqaror rivojlanishini ta‘minlab bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonini 92-93-maqsadlariga ko‘ra: “Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, mintaqa bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini ko‘paytirish hamda mamlakatimizga investitsiyalar oqimini oshirish” kabi ustuvor maqsad va vazifalar belgilab berildi<sup>1</sup>.

Ushbu farmonda belgilangan ustuvor maqsadlar va vazifalarni amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonni o‘rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish imkonini yaratish ko‘zda tutilgan. Bunda, mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda mintaqalar ulushini oshirish kabi maqsadlarga erishish asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Jumladan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga muvofiq 2030-yilga borib, YaIM hajmini 160 milliard AQSH dollardan, aholi jon boshiga YaIM ni 4000 AQSH dollardan oshirish maqsad qilingan bo‘lib, bunda fiskal taqchillikning YaIM ga nisbatan 2024-yilda 4 %, keyingi yillarda 3 % dan oshirmaslik, inflyatsiya darajasini target (5-6 %) darajada saqlash, eksport hajmini 45 milliard AQSH dollarga yetkazish vazifalari belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda 2024-2026 yillar uchun mo‘ljallangan davlat budjeti parametrlariga ko‘ra, mazkur strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali YaIM ni hajmi 2024-yilda o‘rtacha 6,2 % dan o‘sib, 2026-yilga borib 1 726 trln.so‘mni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda<sup>2</sup>.

Mintaqalarni iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

- mintaqalarning yalpi hududiy mahsulotlari hajmini oshirishda Davlat dasturlarini ishlab chiqish va uni monitoringini tashkil qilish;
- mintaqalarda yirik sanoat tarmoqlari korxonalari tarkibida ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- mintaqalarda erkin iqtisodiy zonalarga berilayotgan imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish, investitsion oqim darajasiga qarab imtiyozlarni kengaytirish va soliq preferensiyalari orqali rag‘batlantirish;
- mintaqalarda kichik sanoat zonalarida yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirishga yo‘naltirilgan innovatsion loyihalarni amalga oshirish masalalariga e‘tibor qaratish;

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

<sup>2</sup> Makro-fiskal xatarlar sharhi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoboti. 2024, 43-bet.

- mintaqalarda iqtisodiy maqsadda foydalanilmayotgan ko'chmas mulk obyektlarini samarali innovatsion va investitsion loyihalar doirasida ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga uzoq muddatga foydalanishga berish;

- mintaqalarda qishloq xo'jaligi korxonalari, xususan fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash orqali eksportga tayyor turdagi mahsulotlar chiqarish hisobiga valyuta oqimini ko'paytirish;

- mintaqalar sanoat korxonalariga yangi innovatsion va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish mexanizmini takomillashtirish.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Ayrim iqtisodchi olimlar tadqiqotchilarga ko'ra, mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqaruvchi kuchlarning shakllanishi va rivojlanishini belgilovchi barcha iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar va hodisalarning, muayyan hududlar doirasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning yig'indisi<sup>1</sup>.

Iqtisodchi olim J.Valterning izlanishlari bevosita mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga quyidagicha yondashgan bo'lib, uning fikriga ko'ra, "yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish strukturalari, tarmoqqa innovatsiyalarni kirib kelishi, hududlarning qaror qabul qilishda ishtiroki, yuqori texnologik ishlab chiqarish va yuqori malakali ishchi kuchining konsentratsiyasi, aholi daromadlari va bandlik darajasi hamda boshqa parametrlar bilan ish ko'rish lozim bo'ladi" deb ta'riflagan<sup>2</sup>.

A.V.Nikolaeva tomonidan olib borilgan izlanishlarda har bir mintaqa rivoji ma'lum darajada mintaqaviy jihatdan quyidagilarga asoslanishi lozimligi ta'kidlangan, ya'ni:

- mintaqalararo iqtisodiy aloqalar;
- milliy iqtisodiyotni o'zaro ta'sir qiluvchi hududlar tizimi sifatida ko'zda tutuvchi mintaqaviy tizimlar;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlanishi;
- hududiy boshqarishni modellashtirish;
- hududlarda xo'jalik faoliyatini boshqarish va tartibga solish mexanizmlari va usullarini takomillashtirish<sup>3</sup>.

O'zbekistonlik olimlardan A.S.Soliev va boshqalar tomonidan "Mintaqa iqtisodiyoti" nomli chop etilgan o'quv qo'llanmada "Mintaqaviy iqtisodiyot - fani asosan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni o'rganadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish esa mamlakat milliy iqtisodiyotning umumiy holati, strategik vazifalari bilan belgilanadi. Mintaqaviy siyosatning eng asosiy maqsadi mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib berishdir<sup>4</sup>" ta'rif bergan.

<sup>1</sup> Адаменко А.А. Ресурсы субъектов малого и среднего бизнеса в развитии региональной экономики: условия кризиса модели роста: монография / А.А.Адаменко. - Новосибирск: Из-во ЦРНС, 2016. - 162 с.

<sup>2</sup> Krugman P. Geography and Trade, Gamburidge MIT Press, 1991 y. 156 page.

<sup>3</sup> Николаева А.В. Региональная экономика. <https://cyberleninka.ru/article/n/regionalnaya-ekonomika/viewer>

<sup>4</sup> Солиев А.С., Ахмедов Э.А., Махамдалиев Р.Й., Назаров М.И., Тожиева З.Н., Болтаев М.Ж., Атажанова У. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. "Университет" нашриёти. Т.: 2003. - 8-11 бетлар.

D.Ibodova ham o‘z tadqiqotlarida mintaqalarni iqtisodiy barqaror rivojlanish inson resurslari va xom ashyo, ularni qayta ishlash quvvatlari mavjud bo‘lgan mintaqalardan farqli tarzda iqtisodiy barqarorlikka kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar, ya‘ni xom ashyo va inson resurslari yetarli bo‘lmagan ayrim hududlarda ham kuzatilmoqda. Ta‘kidlash joizki, mintaqada inson resurslari va xom ashyo, ularni qayta ishlash quvvatlari mavjud bo‘lishi mumkin, biroq iqtisodiy barqaror bo‘lmasligi mumkin. Aksincha, mintaqada inson resurslari va xom ashyo yetarlicha bo‘lmasada biroq iqtisodiy barqaror rivojlanayotgan mintaqalarni ham kuzatish mumkin<sup>1</sup>.

A.A.Nizomov o‘z tadqiqotlarida mintaqaviy iqtisodiyot rivojiga doir quyidagi fikrlarni bayon etgan, ya‘ni, “mintaqaviy boshqarishning asosini mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil etadi va bir tomondan ijtimoiy takror ishlab chiqarining tarmoq tuzilmalari sifatida belgilansa, boshqa tomondan, yakka-yakka takror ishlab chiqarish jarayonlarining korxonada darajasidagi integratsiyasi sifatida belgilanadi. Bu esa o‘z navbatida mintaqada iqtisodiyotining majmuaviy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni belgilab beradi”<sup>2</sup>.

F.R.Xolbekovanning tadqiqotlari Farg‘ona mintaqasi bo‘yicha olib borilgan bo‘lib, hududlarning mahalliy ishlab chiqarish salohiyatni oshirish hamda yalpi hududiy mahsulot tarkibiga mintaqada mahalliy aholisining xorijda vaqtincha bajarayotgan ish va xizmatlari qiymatini ham kiritish lozimligini ta‘kidlagan. Sababi, bu qiymat hozirgacha na yalpi ichki mahsulotga na yalpi hududiy mahsulot tarkibiga kiritilmaganligi asoslangan. Ushbu qiymatning yalpi hududiy mahsulot tarkibiga kiritilishi mamlakatning yalpi mahalliy mahsulot hajmining o‘shishiga ta‘siri izohlab berilgan<sup>3</sup>.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda aytish joizki, mamlakatda mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayonida boshqaruv tizimining turli tuzilmalari bir-biriga o‘zaro ta‘sir qiladi, xususan, korxonalar muayyan mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarish ko‘lami to‘g‘risida qaror qabul qilishi, hududiy hokimiyat organlari - umumiy hududiy foydalanishdagi ayrim obyektlarni bunyod qilish haqida, aholining ushbu hududda yashashi yoki chiqib ketishi, aholi daromadlarini qanday ishlatishlarni mustaqil hal qiladi.

E.V.Alexin ham o‘z tadqiqotlarida tabiiy resurslardan foydalanishni mintaqaviy darajada o‘rganib chiqqan bo‘lib, tadqiqotchining fikriga ko‘ra, mintaqaviy xo‘jalik majmui - bu chambarchas ichki xo‘jalik aloqalari bilan birlashgan korxonalar va tarmoqlarning maqsadli shakllangan, barqaror birikmasidir. Iqtisodiy kompleksning muvaffaqiyatli ishlashi va rivojlanishi mintaqaviy xususiyatlarni, asosiy ishlab chiqarish kuchlarini butun mintaqaviy darajada rivojlantirishni belgilovchi omillarni maksimal darajada hisobga olishga bog‘liq bo‘lib, uni uchta guruhga bo‘lgan holda o‘rgangan:

---

<sup>1</sup> Ibodova D. Mintaqaning raqobatbardoshligini ta‘minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari ta‘sirini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. №3(23) Iyul-sentyabr. 2023- yil. 41-48-betlar.

<sup>2</sup> Nizomov A.A. Mintaqada iqtisodiyotini tarkibi jihatdan takomillashtirish yo‘llari (Buxoro viloyati misolida) i.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: O‘zMU, 2021. - 58 bet.

<sup>3</sup> Xolbekova F.R. Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish asosida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash (Farg‘ona vodiysi misolida). i.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2022. - 58 bet.

1) Tabiiy resurslar - tabiiy resurslarning mavjudligi, ularning miqdori, assortimenti, iqlimi, ekologiyasi;

2) Iqtisodiy resurslar - iqtisodiy va geografik joylashuvi, rivojlangan hududlarga nisbatan oʻrni, transport yoʻnalishlari;

3) Demografik resurslar - aholi soni, hudud boʻyicha taqsimoti, yosh tarkibi, mehnatga layoqatli aholining soni, tarkibi, uning malaka darajasi<sup>1</sup>.

Tadqiqotchilar V.Gorbanev, I.Mitrafanovalar ham oʻz tadqiqotlarida tabiiy resurslar borasida alohida ilmiy yondashuvlariga koʻra, “tabiiy resurslar jamiyatning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarish jarayonida foydaniladigan tabiiy muhitning tarkibiy qismlaridir. Tabiiy resurslar mohiyatan kelib chiqishi jihatdan jismoniy koʻrinishga ega boʻlib, ulardan foydalanish orqali iqtisodiy resursga aylanadi<sup>2</sup>.

Rossiyalik olimlar T.A.Agapova va S.F.Sereginalarning tadqiqotlariga koʻra, milliy tegishlilikidan qatʼiy nazar mazkur mamlakatning iqtisodiy hududida iqtisodiy manfaat markaziga ega boʻlgan barcha iqtisodiy subyektlar (korxonalar, uy xoʻjaliklari) rezident hisoblanadi. Shu bois, mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishi butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishini taʼminlaydi. Albatta, bunda ilm-fan va texnik evolyutsiyaning oʻrni muhim ahamiyatga ega<sup>3</sup>.

Tabiiy resurslar sifatida mineral xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish xususiyatlarini toʻrtta guruhga boʻlgan holda tavsiya etgan A.E.Ishmuhamedov, M.R.Raximova, L.A.Ishmuxamedovalarning tadqiqotlarida ham keltirib oʻtilgan. Mutaxissislarning fikriga koʻra, mamlakatimizda ishga solinayotgan foydali qazilma konlari boshqa mamlakatlardan oʻzining juda katta zaxiralari bilangina emas, balki oʻziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Birinchi, tabiiy va mineral xom ashyo zaxiralari yirik konlarda toʻplangan boʻlib, ularni qazib olingan joyning oʻzidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati bor;

Ikkinchi, foydali qazilmalarning koʻpgina turlari tarkibida foydali komponentlar yuqori darajada boʻlibgina qolmay, katta miqdorda yoʻldosh elementlarga ham ega;

Uchinchi, konlarning koʻpchiligida ochiq usulda ishlash mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi ham nisbatan oddiy. Bu texnologiya koʻp miqdorda foydali komponentlar chiqarishni va jahon bozorida xaridorgir mahsulot olishni taʼminlaydi;

Toʻrtinchi, koʻpgina foydali qazilma konlari yaxshi oʻzlashtirilgan, aholi zich yashaydigan hududlarda joylashgan. Qulay transport infratuzilmasiga, shu jumladan, suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega<sup>4</sup>.

Tadqiqotchi M.R.Raximova tomonidan mintaqa xoʻjalik faoliyatida resurslardan samarali foydalanish borasidagi quyidagi fikrlarini keltirib oʻtish oʻrinli, yaʼni,

---

<sup>1</sup> Алехин Э.В. Региональная экономика и управление. Учебное пособие. Пенза. 2007. - 29-30 стр.

<sup>2</sup> Горбанев В., Митрафанова И. Природные ресурсы мировой экономики. Ж//Мировое и национальное хозяйство. №2 (29), 2014. <https://mirec.mgimo.ru/2014/2014-02/prirodnnye-resursy-mirovoj-ekonomiki>

<sup>3</sup> Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник. -7-е изд.перераб. и доп.-М.: Издательство “Дело и сервис”, 2005. 25-с.

<sup>4</sup> Ишмухамедов А.Э., Рахимова М.Р., Ишмухамедова Л.А.. Минтақавий иқтисодиёт. Дарслик. - ТДИУ. 2007. - 15-бет.

“Insoniyat oldida ko‘ndalang bo‘lib turgan oziq-ovqat, energetika, sanoat va ijtimoiy rivojlanish masalalarini tabiiy muhitni muhofaza qilmay va undan foydalanishni yaxshilamay turib hal qilib bo‘lmasligi, shu bois, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti ham asosiy muammolardan biri bo‘lib turibdi. Respublikada aholining zich joylashganligi, ya‘ni yerlarda suv chiqarilishi va suv resurslarining yetishmasligi, o‘rmonning yo‘qligi va cho‘lning o‘zlashtirilishi natijasida bu muammolar yanada dolzarb bo‘lib qolmoqda”<sup>1</sup>.

Q.N.Abirqulov, A.N.Xojimatov va N.R.Rajabovlar ham o‘z tadqiqotlarida tabiiy resurs sifatida mamlakatimiz hududlaridagi foydali qazilmalar va ulardan foydalanish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, ishlab chiqarish kuchlarining tezkorlik bilan taraqqiy qilayotganligi sanoatni ko‘plab mineral xom ashyo bilan uzluksiz ta‘minlashi lozim. Bu o‘z navbatida yer qa‘ridan ko‘plab foydali qazilma boyliklarini qazib olishga undaydi. Shu bois, foydali qazilmalardan oqilona foydalanish muammosi Yer sayyorasida tobora jiddiy tus olmoqda, bu borada qazib olish va ularni qayta ishlash texnologiyasiga katta ahamiyat berilishi iqtisodiy jihatdan kamroq chiqim-xarajatlarni sarflash borasida ham tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratish lozim<sup>2</sup>.

Mintaqlarda sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish borasida xorijiy olimlar bir qator tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, tadqiqotchilar fikricha AQSh, Kanada, Fransiya va Angliya davlatlari o‘ta yuqori darajada rivojlangan xizmat ko‘rsatishga ega bo‘lib, bunga YaHM da sanoatning qayta ishlovchi ulushini yuqoriligi, Xitoy va Janubiy Koreyaga nisbatan past darajadali bilan ajralib turadi. Yirik tabiiy resurslarga ega Avstraliya davlatida qayta ishlovchi sanoatning bozor segmentiga nisbatan ulushi katta bo‘lib, mamlakatda mintaqaviy jihatdan qayta ishlovchi sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talab asosan import hisobidan qondirilib kelinadi<sup>3</sup>.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston mintaqalarida sanoatni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash va mavjud muammolarni aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil usuli asosida mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy elementlari, xususan, sanoat tarmoqlari, resurslar va infratuzilma o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Statistik tahlil usuli yordamida yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot va sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining dinamikasi baholandi. Taqqoslama tahlil orqali hududlar kesimida sanoat rivojlanishidagi farqlar aniqlandi. Shuningdek, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullari asosida mavjud muammolar tizimlashtirildi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta‘minladi.

<sup>1</sup> Рахимова М.Р. Минтақа ва маҳаллий хўжалик иқтисодиёти. - Ўқув қўлланма. -Т.: ТДИУ, 2004. - 96-97 бетлар.

<sup>2</sup> Абирқулов Қ.Н., Хожиматов А.Н., Ражабов Н.Р. Экология. Ўқув қўлланма. - Т.: ТДИУ, 2007. - 123-бет.

<sup>3</sup> United Nations Industrial Development Organization. 2015. Industrial Development Report 2016. The Role of Technology and Innovation in Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna. 89-p. [https://www.unido.org/sites/default/files/2015-12/EBOOK\\_IDR2016\\_FULLREPORT\\_0.pdf](https://www.unido.org/sites/default/files/2015-12/EBOOK_IDR2016_FULLREPORT_0.pdf)

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish holatini tahliliy o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, respublika YaIM ning o‘shish sur‘atlari, mintaqalarda YaHM ning o‘shish ko‘rsatkichlari tahlili, ishlab chiqarish sanoati korxonalarini, xom ashyo va tabiiy resurslardan foydalanish darajasi ko‘rsatkichlarini tahliliy jihatdan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

**1-jadval.**

### O‘zbekiston Respublikasi Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining dinamik o‘zgarishi, mlrd.so‘m<sup>1</sup>

YAIM	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2022-yil	2024-yil	2024-yilni 2010-yildan farqi (+;-)
O‘zbekiston Res. bo‘yicha	78936,6	221350,9	605514,9	896617,9	1454574,0	1375637,4
Qoraqalpog‘iston Res.	2181,7	6703,8	21661,9	30117,6	45658,5	43476,8
Andijon viloyati	4497,3	13914,0	38008,5	56488,3	90337,9	85840,6
Buxoro viloyati	4651,6	12368,6	31334,2	46126,2	71560,4	66908,8
Jizzax viloyati	2215,3	6730,8	18441,7	27545,4	43057,9	40842,6
Qashqadaryo viloyati	6944,1	17247,7	35351,5	49692,3	80658,3	73714,2
Navoiy viloyati	4325,6	10545,2	49780,4	68799,4	117279,8	112954,2
Namangan viloyati	3364,4	10826,9	27863,0	40565,1	68915,7	65551,3
Samarqand viloyati	6585,8	18513,7	43023,2	61627,7	99866,1	93280,3
Surxondaryo viloyati	3394,7	11114,4	24625,6	34385,3	54354,1	50959,4
Sirdaryo viloyati	1688,1	5076,9	12803,8	18210,8	28003,3	26315,2
Toshkent viloyati	7631,1	22089,0	64407,6	94789,9	146385,2	138754,1
Farg‘ona viloyati	5417,5	16342,4	37216,2	56315,9	91333,0	85915,5
Xorazm viloyati	2888,6	8940,4	21315,4	32541	51261,0	48372,4
Toshkent shahri	10412,0	29847,4	95247,8	149646,2	281147,4	270735,4

Har bir mamlakatning mintaqaviy jihatdan rivojlanishi belgilab beradigan ko‘rsatkich bu YaIM va uning o‘shish sur‘ati bilan ifodalanadi. YaIM ning o‘shish hajmi bo‘yicha tahlillarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2024-yilda 1454574,0 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2010-yilga nisbatan 1375637,4 mlrd.so‘mga ortganligini ko‘rish mumkin.

Respublika hududlarida yaratilgan YaHM hajmi bo‘yicha 2024-yil holatiga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkich sifatida Toshkent shahri (281147,4 mlrd.so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, keyingi o‘rinni Toshkent viloyati (146385,2 mlrd.so‘m), Navoiy viloyati (117279,8 mlrd.so‘m), Samarqand viloyati (99866,1 mlrd.so‘m), Farg‘ona viloyati (91333,0 mlrd.so‘m), Andijon viloyati (90337,9 mlrd.so‘m) bilan ushbu viloyatlar band etganligini ko‘rish mumkin. YaHM hajmi bo‘yicha eng past o‘rinlarni qayd etgan viloyatlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, Sirdaryo (28003,3 mlrd.so‘m) viloyati hissasiga to‘g‘ri kelgan (1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasining YaIM hajmi 2024-yil yakunlariga ko‘ra, joriy narxlarda 1454573,9 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2023-yil yakuni bilan qiyosiy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

taqqoslaydigan bo'lsak, 6,5 % ga o'sdi. YaIM deflyator indeksi 2023-yildagi narxlarga nisbatan 113,3 % ni tashkil etdi. 2.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2024-yilni 2023-yilga nisbatan 0,2 f.p. ga o'sishi kuzatildi.

**2-jadval.**

**O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yalpi ichki mahsulot hajmining o'zgarishi, mlrd.so'm<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2022-yil	2024-yil	2024-yilni 2010-yildan farqi (+;-)
<b>I. YAIM, jami</b>	<b>78 936,6</b>	<b>221 350,9</b>	<b>605 514,9</b>	<b>896 617,9</b>	<b>1 454 574,0</b>	<b>1 375 637,4</b>
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	69 473,0	201 204,0	561 153,4	836 839,7	1 386 610,0	1 316 867
Mahsulotlarga sof soliqlar	9 463,6	20 146,9	44 361,5	59 778,2	67 963,9	58 500,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>69 473,0</b>	<b>201 204,0</b>	<b>561 153,4</b>	<b>836 839,7</b>	<b>1 386 610,0</b>	<b>1 316 867,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21 251,3	64 680,3	150 493,7	208 809,2	266 565,0	245 313,7
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	16 757,9	49 849,2	187 610,0	280 057,7	435 062,4	418 304,5
sanoat	12 997,3	38 466,6	150 275,1	225 771,2	293 734,8	280 737,5
qurilish	3 760,5	11 382,6	37 334,8	54 286,4	96 801,9	93 041,4
xizmatlar	31 463,8	86 674,5	223 049,8	347 972,9	576 851,5	545 387,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 982,7	16 145,3	36 662,8	58 020,3	173 555,3	167 572,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7 337,8	19 158,2	38 313,1	60 027,1	112 328,6	104 990,8

Mintaqaviy jihatdan YaIM ni shakllanishida tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 2024-yil holatiga ko'ra, 1386610,0 mlrd.so'mni tashkil etgan holda 106,5 foiz o'sishga erishgan. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ulushi 266565,0 mlrd.so'mni, sanoat (qurilishni qo'shgan holda) 435062,4 mlrd.so'm, sanoatda 293734,8 mlrd.so'm, qurilishda 96801,9 mlrd.so'm, xizmatlar 576851,5 mlrd.so'mni tashkil etgan (2-jadval).

Respublikamiz aholi jon boshiga YaIM hamda mintaqalarida (YaHM) hajmining yildan-yilga ko'tarilishi bevosita hududiy sanoat korxonalarining tashkil etilishi, mintaqalarda erkin iqtisodiy zonalarining tashkil topishi va ularga berilayotgan imtiyozlarni kengaytirish, kichik sanoat zonalarida yangi korxonalarni tashkil qilish hisobiga ish o'rinlarini yaratish orqali hududiy mahsulot hajmini oshirish imkoniyati

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ko‘payadi. Mintaqalarda aholi jon boshiga YaHM hajmini oshirish bevosita aholi turmush darajasi va yashash sifatining oshishiga, ishsizlik darajasining pasayishi, iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarining raqobatbardoshligini oshirilishi hisobiga yangi obyektlarni yaratish, mintaqalarning mamlakat byudjetiga qaramligini kamaytirish hamda mahalliy byudjetlar salohiyatini oshirish va hudud rivojiga yo‘naltirishga erishishdan iborat.

### 3-jadval.

#### Mintaqalarda yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari hajmining o‘zgarishi<sup>1</sup>

Yillar	Ko‘mir qazib olish hajmi, ming tonna	Neft qazib olish hajmi, ming tonna	Tabiiy gaz qazib olish hajmi, mln.m <sup>3</sup> ,	Gaz kondensati qazib chiqarish hajmi, ming tonna
2015	3488,0	1000,1	54600,5	1728,0
2020	4133,1	739,4	49768,2	1291,0
2021	5056,3	774,1	53802	1323,9
2022	5356,2	787,9	51678,4	1287,1
2023	6469,0	779,7	46710,4	1198,0
2024	8166,1	713,4	44597,6	1214,3
<b>2024-yilni 2015-yildan farqi (+;-)</b>	4678,1	-286,7	-10002,9	-513,7

Mamlakatimiz mintaqalarida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari hajmining o‘zgarishini tahliliy jihatdan ko‘radigan bo‘lsak, hududiy yirik sanoati korxonalari tomonidan ko‘mir qazib olish hajmi har yili ortib borganini ko‘rish mumkin. 3-jadvalda ko‘rish mumkinki, 2015-yilda 3488,0 ming tonna qazib olingan bo‘lsa, 2024-yilda 8166,1 ming tonna qazib olingan. 2024-yilni 2015-yilga nisbatan taqqoslaydigan bo‘lsak, 4678,1 tonnaga yoki 2,34 baravarga ortgan<sup>2</sup>. Bu bevosita hududlarda ko‘mir yoqilg‘isiga bo‘lgan talabning ortib borishi bilan ifodalanadi.


Hududlar miqyosida neft qazib olish hajmi 2016-yildan boshlab pasayish holati kuzatilgan. Qazib olishning eng yuqori 2015-2017 yillarda amalga oshirilgan bo‘lib, 2018-yildan boshlab qazib olish hajmi pasayishi kuzatilgan. 2024-yilni 2015-yilga nisbatan taqqoslaydigan bo‘lsak, -286,7 ming tonnaga kamayganligini ko‘rish mumkin. Asosiy pasayish sabablari, neft qazib olish zaxiralarining kamayishi hamda tashqi bozordan import hisobiga kirib kelayotgan neft mahsulotlari hisobidan talab qondirilgan. Tabiiy gaz qazib olish hajmi 2015-yildan 2019-yilga ortib borgan, biroq, 2020-yildan boshlab pasayish kuzatilgan. 2024-yilni 2015-yilni taqqoslaydigan bo‘lsak - 10002,9 mln.m<sup>3</sup> ga yoki 18,3 % ga kamaygan. Hududlarda gaz kondensati qazib olish hajmi parallel ravishda kamayib borganligini ko‘rish mumkin, xususan,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

2024-yilni 2015-yilni nisbatan taqqoslaydigan bo‘lsak - 513,7 ming tonnaga yoki 29,7 % ga kamaygan (3-jadval).

Mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim strategik tarmoqlardan biri bu ishlab chiqaradigan sanoat hisoblanadi. Ushbu tarmoq bevosita yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun bir-biridan to‘liq mezon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. 1-rasmda respublikamiz mintaqalari bo‘yicha 2018-2024 yillar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasini foiz hisobida ko‘radigan bo‘lsak, yuqori o‘sish 2018-yilda 108,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yil aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hajmi 98,9 % gacha pasayish qayd etildi.



**1-rasm. O‘zbekiston bo‘yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi dinamikasi<sup>1</sup>**

2023-2024 yillarda sanoat mahsulotlari yuqori o‘sish tempini qayd etdi. 2024-yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 23,8 mln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2018-yilga nisbatan 3,3 martaga o‘sganligini ko‘rish mumkin (1-rasm).

Mintaqalar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish kuchlarini joylashuvi respublikamiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi bilan uzviy darajada bog‘liq. Sanoat obyektlarining hududiy joylashuvi bevosita hududlarda mavjud yer osti va yer usti resurslarining joylashuviga hamda ixtisoslashuviga qarab amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Yuqorida amalga oshirilgan tahliliy natijalardan kelib chiqib, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va sanoatning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishda, tarmoq tuzilmalari

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

joylashuvini maqbullashtirishda ayrim yoʻnalishlar oʻrtasidagi maʼlum ishlab chiqarish aloqalarini ifodalovchi miqdoriy nisbatlarni hisobga olish zarur<sup>1</sup>.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Respublikamiz mintaqalarini iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning imkoniyatlari sifatida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- mamlakatimiz mintaqalarida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini qayta inventarizatsiyadan oʻtkazish orqali, kirib kelgan xorijiy korxonalarining iqtisodiy samaradorligi darajasini baholash va ularga imtiyozlar berish, soliq va boj toʻlovlarini eksport koʻrsatkichlariga qarab belgilash;

- mintaqalarda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalarida sanoatning eng maqbul klasterlik faoliyatini yaratish, sanoat tarmoqlariga jalb qilingan investitsiyalar kirib kelishini ragʻbatlantirish choralarini koʻrish;

- mintaqalarni oʻzaro mutanosiblikda rivojlantirish maqsadida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat xususiy sheriklik asosida mablagʻlarni yoʻnaltirish;

- mintaqalar sanoat tarmoqlarida chuqur qayta ishlash boʻyicha yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish;

- mintaqalarda yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish orqali aholini ish bilan taʼminlashga erishish;

- mintaqalarda qayta ishlash sanoatini yoʻlga quyish orqali yangi ish oʻrinlarini tashkil etish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOʻTLAR ROʻYXATI**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni  
<https://lex.uz/ru/docs/6600413>

2. Makro-fiskal xatarlar sharhi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoboti. 2024, 43-bet.

3. Адаменко А.А. Ресурсы субъектов малого и среднего бизнеса в развитии региональной экономики: условия кризиса модели роста: монография / А.А.Адаменко. - Новосибирск: Из-во ЦРНС, 2016. - 162 с.

4. Krugman P. Geography and Trade, Gambrudge MIT Press, 1991 y. 156 page.

5. Николаева А.В. Региональная экономика.

<https://cyberleninka.ru/article/n/regionalnaya-ekonomika/viewer>

6. Солиев А.С., Ахмедов Э.А., Махамдалиев Р.Й., Назаров М.И., Тожиева З.Н., Болтаев М.Ж., Атажанова У. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. “Университет” нашриёти. Т.: 2003. - 8-11 бетлар.

7. Ibodova D. Mintaqaning raqobatbardoshligini taʼminlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini taʼsirini oshirish yoʻllari. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. №3(23) Iyul-sentyabr. 2023- yil. 41-48-betlar.

---

<sup>1</sup> Kasimov A.A. Oʻzbekiston sanoat tarmogʻida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning metodologik asoslari. Monografiya. T.: 2025 y. 264 b.

8. Nizamov A.A. Mintaqa iqtisodiyotini tarkibi jihatdan takomillashtirish yo‘llari (Buxoro viloyati misolida) i.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: O‘zMU, 2021. - 58 bet.

9. Xolbekova F.R. Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish asosida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash (Farg‘ona vodiysi misolida). i.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2022. - 58 bet.

10. Алехин Э.В. Региональная экономика и управление. Учебное пособие. Пенза. 2007. - 29-30 стр.

11. Горбанев В., Митрафанова И. Природные ресурсы мировой экономики. Ж//Мировое и национальное хозяйство. №2 (29), 2014. <https://mirec.mgimo.ru/2014/2014-02/prirodnye-resursy-mirovoj-ekonomiki>

12. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник. -7-е изд.перераб. и доп.-М.: Издательство “Дело и сервис”, 2005. 25-с.

13. Ишмухамедов А.Э., Рахимова М.Р., Ишмухамедова Л.А.. Минтақавий иқтисодиёт. Дарслик. - ТДИУ. 2007. - 15-бет.

14. Рахимова М.Р. Минтақа ва маҳаллий хўжалик иқтисодиёти. - Ўқув қўлланма. -Т.: ТДИУ, 2004. - 96-97 бетлар.

15. Абиркулов Қ.Н., Хожиматов А.Н., Ражабов Н.Р. Экология. Ўқув қўлланма. - Т.: ТДИУ, 2007. - 123-бет.

16. United Nations Industrial Development Organization. 2015. Industrial Development Report 2016. The Role of Technology and Innovation in Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna. 89-p. [https://www.unido.org/sites/default/files/2015-12/EBOOK\\_IDR2016\\_FULLREPORT\\_0.pdf](https://www.unido.org/sites/default/files/2015-12/EBOOK_IDR2016_FULLREPORT_0.pdf)

17. Kasimov A.A. O‘zbekiston sanoat tarmog‘ida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning metodologik asoslari. Monografiya. T.: 2025 y. 264 b.

18. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**